

## Davlat akkreditatsiyasini olgan ta'lim muassasalari haqida

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2006 yil 10 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasi ta'lim muassasalarini davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tartibi to'g'risidagi **NIZOM**ni tasdiqlash haqida"gi **21-sonli qarori** ijrosini ta'minlash maqsadida Davlat test markazi huzurida doimiy faoliyat olib boruvchi Akkreditatsiya komissiyasi tuzilgan. Komissiya har oyning oxirgi chorshanba kunlari o'zining navbatdagi yig'ilishini o'tkazib boradi va unda attestatsiya komissiyalari tomonidan taqdim etilgan attestatsiya xulosalari va ta'lim muassasalarini akkreditatsiyalashga oid hujjatlar ko'rib chiqiladi.

Yuqoridagi qaror chiqqanidan bugungi kungacha bo'lgan muddatda Akkreditatsiya komissiyasi jami **58** ta oliy ta'lim muassasasiga (shu jumladan, **22** ta OTM ikkinchi muddatga), **31** ta kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash muassasalariga (va ularning **13** ta hududiy filiallari), **104** ta o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim muassasalariga, **9806** ta umumiy o'rta va **4618** ta maktabgacha ta'lim muassasalariga nisbatan "**Akkreditatsiyalandi**" degan qaror qabul qilgan.

Akkreditatsiyalangan barcha ta'lim muassasalariga **5 yil muddat**ga davlat akkreditatsiyasi to'g'risida **SERTIFIKAT**lar berilib, ular **ReeSTR**ga kiritilgan.

